

**ORIENTAL JOURNAL OF PHILOLOGY**

journal homepage:

<http://www.supportscience.uz/index.php/ojp/about>

THE ROOTS AND ESSENCE OF LITERARY CRITICISM: A VIEW OF THE HISTORY OF UZBEK LITERARY STUDIES

Gulzina Ravshanovna Tulishova*PhD in Philology**Jizzakh State Pedagogical University**E-mail: gulzinatulishova@gmail.com**Jizzakh, Uzbekistan***ABOUT ARTICLE**

Key words: Literary criticism, literary studies, ilm al-naqd (science of criticism), artistic and aesthetic thinking, Navoi, Babur, Fitrat, Abdulla Qodiriy, Ozod Sharafiddinov, creativity, analysis.

Received: 01.11.25**Accepted:** 02.11.25**Published:** 03.11.25

Abstract: This article analyzes the stages of formation of literary criticism and literary studies in Uzbek literature, as well as their role and significance in the development of artistic and aesthetic thought. The critical views in the works of classical writers such as Alisher Navoi and Zahiriddin Muhammad Babur, as well as the literary-critical heritage of Fitrat, Abdulla Qodiriy, Cho'lpon, Oybek, Abdulla Qahhor, and Ozod Sharafiddinov, are examined to reveal the essence and function of "ilm al-naqd" (the science of criticism). The article discusses the role of criticism in literature, its function in shaping the creative personality, and its importance in the development of national thought and spirituality.

ADABIY TANQIDNING ILDIZLARI VA MOHIYATI: O'ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIK TARIXIGA NAZAR

Gulzina Ravshanovna Tulishova*JDPU Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)**E-mail: gulzinatulishova@gmail.com**Jizzax, O'zbekiston***MAQOLA HAQIDA**

Kalit so'zlar: Adabiy tanqid, adabiyotshunoslik, ilmi naqd, badiiy-estetik tafakkur, Navoiy, Bobur, Fitrat, Abdulla Qodiriy, Ozod Sharafiddinov, ijod, tahlil.

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek adabiyotida adabiy tanqid va adabiyotshunoslikning shakllanish bosqichlari, ularning badiiy-estetik tafakkur rivojidagi o'rni hamda ahamiyati tahlil etilgan. Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur

kabi mumtoz adiblar ijodidagi tanqidiy qarashlar, shuningdek, Fitrat, Abdulla Qodiriy, Cho'lpon, Oybek, Abdulla Qahhor va Ozod Sharafiddinovlarning adabiy-tanqidiy merosi misolida "ilmi naqd"ning mohiyati va funksiyasi yoritiladi. Maqolada tanqidning adabiyotdagi o'rni, uning ijodkor shaxsini kamolga yetkazishdagi roli hamda milliy tafakkur va ma'naviyat taraqqiyotidagi ahamiyati haqida fikr yuritiladi.

КОРНИ И СУЩНОСТЬ ЛИТЕРАТУРНОЙ КРИТИКИ: ВЗГЛЯД НА ИСТОРИЮ УЗБЕКСКОГО ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИЯ

Гульзина Равиановна Тулишова

Кандидат наук (PhD) по филологии

Джизакский государственный педагогический университет

E-mail: gulzinatulishova@gmail.com

Джизак, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Литературная критика, литературоведение, ильм ан-нагд (наука критики), художественно-эстетическое мышление, Навои, Бабур, Фитрат, Абдулла Кадыри, Озод Шарафиддинов, творчество, анализ.

Аннотация: В данной статье анализируются этапы формирования литературной критики и литературоведения в узбекской литературе, а также их роль и значение в развитии художественно-эстетического мышления. На примере критических взглядов в произведениях таких классиков, как Алишер Навои и Захириддин Мухаммад Бабур, а также литературно-критического наследия Фитрата, Абдуллы Кадыри, Чулпана, Айбека, Абдуллы Каххара и Озода Шарафиддинова раскрывается сущность и функции «ильм ан-нагд» (наука критики). В статье рассматриваются место критики в литературе, её роль в совершенствовании творческой личности и значение в развитии национального мышления и духовности.

Kirish. Ko'p asrlilik so'z san'ati singari tanqid va adabiyotshunoslik ham uzoq tarixiy tadrijiy yo'lni bosib o'tgan. Badiiy ijod va tanqid-adabiyotshunoslik hamisha uzviy bog'liqlikda rivojlanib kelgan. Barcha asrlarda badiiy-estetik tafakkur rivojida adabiy tanqid- "ilmi naqd"ning muhim o'rni va ahamiyati e'tirof etiladi. O'zbek adabiyoti tarixida, xususan, XV-XVI-asrlar badiiy ijod olamida adabiyotshunoslikka doir muhim asarlarni va adabiy jarayon haqida ma'lumot beruvchi qator tazkiralarni ham uchramiz. Ayniqsa, necha minglab she'rlar va "Xamsa"dek ulkan ijod namunalarni yaratgan Navoiy va "Boburnoma"dek fundamental va qomusiy asarni yozgan Bobur

mirzolar tanqid va adabiyotshunoslik sohasida ham beqiyos faoliyat ko'rsatganlari yuksak e'tibor va ehtiromga munosibdir. Xususan, Navoiyning yuzlab shuaroning shaxsi, iste'dodi, ijodiy salohiyati va siyrat chizgilari muxtasar aks etgan "Nasoyim ul-muhabbat" va "Majolis un-nafois" asarlari tanqid va adabiyotshunoslikning dastlabki mumtoz namunalari. Yoxud "Boburnoma", "Tarixi Rashidiy", "Funun ul-balog'a" asarlari va keyingi asrlarda yaratilgan qator tazkiralari hamda tarixiy-memuar, adabiy-estetik va hasbihol-biografik bitiklar ham muayyan darajada tanqid-adabiyotshunoslik manbalari ekanligini ham qayd etish lozim. Badiiy-estetik tafakkur rivojida adabiy tanqid va adabiyotshunoslik, ya'ni "ilmi naqd", "ilmi g'ariba", "ilmi bade'a"ning o'rni va ahamiyati barcha asrlarda ham yetuk shoir va mutafakkirlar tomonidan namoyon etib kelingan. Temuriylar saltanati, xususan, Mirzo Ulug'bek, Husayn Boyqaro kabi hukmdorlar davrida ommaviy tus olgan va Alisher Navoiy rahnamoligida adabiy-ilmiy an'anaga aylangan "oliy majlis" anjumanlarida mumtoz asarlar va shohbaytlar tinglanib, yuksak mezonlar asosida nozikta'blik bilan tahlil etilgan va qizg'in muhokama qilingan. Navoiy va Jomiy kabi buyuk shoir - mutafakkirlar va yirik sultonlar huzurida o'tkazilgan va iste'dod darajalari turlicha bo'lgan nazm va fazl ahli qatnashgan bunday nafosat majlislarida ko'plab ijod durdonalarining ma'no va shakl mukammalligi kabi fasohat-fazilatlar e'tirof etilgan. Shu bilan birga ayrim nazmiy bitiklardagi noqislik va saktaliklar ham "ilmi naqd"- tanqidchilik nigohi bilan aniqlangan va ularga u yoki bu tarzda munosib baho berilgan. Bu ijodiy an'analari keyinchalik - Qo'qon va Xorazm adabiy muhitida Amir Umarxon va Muhammad Rahimxon II - Feruz rahnamoligi va homiyligida ham davom ettirilgan tarixiy manbalardan ma'lum. Bulardan umumiy bir xulosa shuki: adabiy tanqid - "ilmi naqd" ham qadimiy bo'lib, (Sultonmurod Olim) badiiy ijod bilan bir vaqtda paydo bo'lgan va u ijodiy jarayon hamda yozuvchi mehnatining doimiy "hamrohi" va "hakami" bo'lib kelgan. Bu haqiqat buyuk shoir va yozuvchilarning ijod jarayoni misolida hamda adabiyotshunoslarning muayyan badiiy asarlarning yaratilish tarixi haqidagi asarlarida ham o'z isbotini topadi. Barcha ulug' adiblar o'z asarlariga nisbatan hamisha mas'uliyat va talabchanlik bilan yondashib, ularning bir necha variant-qoralama nusxalarini bitishi hamda har bir satri ustida uzoq ishlashi o'sha adiblar qalbi va shuuridagi ichki tanqidchi nigohi bilan izohlanishi mumkin. Buyuk adib Lev Tolstoydan "Kechalari nega kam ijod qilasiz" deb so'raganlarida, "kechasi dilimdagi tanqidchi uxlab qoladi" degan javobida ham muhim hayotiy va falsafiy bir haqiqat ifodalangan.

Darhaqiqat, badiiy ijod hamda tanqid doimo bir-biri bilan qo'l ushlab boradi (Belinskiy) va ezgu oliyjanob bir maqsadga - ma'naviyat, tafakkur rivoji yo'lida xizmat qiladi. Shuning uchun ham asosiy funksiya-vazifasi badiiy ijod namunalari "saralash" (Behbudiy) bo'lgan "ilmi naqd" - tanqidchilikni haqli ravishda adabiy jarayon ko'zgusi deb ataydilar. Chinakam tanqid badiiy asar vositasida hayot, inson haqida mushohada yuritadi; badiiy asarning ijtimoiy va tarixiy-madaniy munosabatlardagi o'rni, vazifasi, milliy-mafkuraviy, umuminsoniy mohiyatini yoritadi; falsafiy-

estetik qiymatini belgilaydi; badiiy asar ruhiga singdirilgan va uning tag ma' nosi-mag'zini ifodalagan go'zallikni hamda inja jihatlarni kashf etadi, ilmiy-mantiqiy xulosalar asosida yuksak badiiylilik talab-mezonlarini belgilashga yo'naltiradi. Mashhur adib hamda allomalar tomonidan ta'kidlanganidek, adabiyot va tanqid doimo bir-biri bilan qo'shqanot bo'lib, rivojlanadi, yuksak va umuminsoniy maqsadlarga xizmat qiladi.

Alisher Navoiyning ijodiy an'analarini davom ettirgan Fitrat, Abdulla Qodiriy, Cho'lpon va Oybek, G'afur G'ulom, Abdulla Qahhor hamda Shayxzodalar, Pirimqul Qodirov, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov va Shukur Xolmirzayev kabilarning betakror ijodi, adabiy-tanqidiy faoliyati, tanqid-adabiyotshunoslik sohasidagi teran fikrlari ham, shubhasiz, ana shunday ezgu maqsadlarga qaratilgan. Masalan, Abdulla Qodiriy g'araz, nafsoniyat va shaxsiyat dardlaridan toza bo'lgan tanqidga yuksak ta'rif beradi: "Hayotning yangidan-yangi muvaffaqiyatlariga boshlovchi, ma'rifat degan muammoning kaliti, madaniyat dunyosi beshigi ana shu tanqiddir"[1.112]. Ammo mash'um sovet tuzumi davrida adabiyot va san'at asarlariga sinfiylik nuqtai nazaridan yondashish hamda kommunistik mafkura hukmronligi oqibatida iste'dodli adiblarning asarlari ham ko'p hollarda nohaq tanqidga uchragan va asossiz qoralangan. O'sha davr adabiy tanqidchiligi saviyasi pastligi va asosiy funksiyasini bajarolmaganini Abdulla Qodiriy achinish bilan shunday qayd etgan edi: "Tanqid so'ziga berilgan ma'no, bizningcha, durust emas. Tanqidning lug'aviy ma'nosi saralash, oroyishini olmoq degan so'zdir. Nainki yer bilan yakson etmak!"[2.45]. Jadidlar va ularga izdosh bo'lgan adabiyotimizning to'ng'ich avlodi vakillari ham adabiyot va san'atni muqaddas deb qadrlash bilan birga tanqidni ijodning muhim va ajralmas sohasi deb, bu jabhada ham faollik ko'rsatganligi bugungi adabiy jarayon va adabiyotshunoslik ilmi uchun ham ibratlidir. "Ozod Sharafiddinov Abdulla Qahhorning barcha muhim adabiy-tanqidiy fikr va qarashlariga alohida hurmat - e'tibor bilan munosabatda bo'lganligi ham ko'p ma'noni anglatib turadi"[3.274-339]. Ayniqsa, ulug' adibning "Yozuvchining yozuvchiligini u yaratgan obrazlariga, adabiyot «domovoyi»ga yozdirgan yangi odamlariga qarab baholash kerak" kabi ilmiy-nazariy jihatdan teran fikrlari Ozod Sharafiddinov kabi adabiyotshunoslar uchun qimmatli bir dastur bo'lganligi ayni haqiqat. Ustoz adiblarimizning davr muhiti bilan bog'liq fikrlarini atoqli munaqqid va adabiyotshunos Ozod Sharafiddinovning ularga hamohang bo'lgan qarashlari bilan davom ettirish tanqidchilik mohiyati va asosiy funksiyasini anglashga yordam beradi. Tanqidning vazifasi ijodkorlarni yetuk asarlar yozishga ilhomlantirish va uni qo'llab-quvvatlash bilan birga, ayni vaqtda, "adabiyotni har qanday balo-qazodan qo'riqlash, adabiyotning sergak, jasur posboni" bo'lish ham uning asosiy vazifasi sanaladi. Bu – adabiyotning fidoiy jonkuyari va targ'ibotchisi bo'lgan millatparvar va vatanparvar munaqqid, adabiyotshunos Ozod Sharafiddinov faoliyatining tayanch nuqtasi va ijodkor sifatidagi maslak hamda e'tiqodining mustahkam bir g'oyaviy-nazariy asosi edi, deyish mumkin. Shu munosabat bilan Ozod Sharafiddinovning adabiy tanqidchilik kasbi

va uning o'ziga xos xususiyatlari va talablari haqidagi qarashlari ham e'tiborga molik: "Adabiy tanqid lirika va drama, qissa va roman kabi adabiyotning, so'z san'atining teng huquqli janrlaridan biridir"[4]. Ya'ni adabiy tanqid ham g'oyat murakkab va mas'uliyatli janrdir. Tanqidchi bo'lish uchun, albatta, iste'dod kerak, shoir, dramaturg yoxud nosir bo'lish uchun iste'dod, talant qanchalik zarur bo'lsa, tanqidchi bo'lish uchun ham shunchalik zarur. Yirik adabiyotshunoslar ta'kidlashicha, tanqidchilik talanti bir necha ijodiy iqtidordan tashkil topadi. Bulardan birinchisi – adabiyotdagi go'zallikni, g'oyaviy va badiiy boylikni his qila bilishdir. Ya'ni tanqid badiiy asarni emotsional qabul qilish jarayonini idrok etish san'atidir. Tanqidchilik talantining tarkibiga kiruvchi yana bir jihat fikrlash qobiliyatidir. Tanqidchi o'qigan narsalarini chuqur tahlil qila bilishi, asardagi voqea va hodisalarni hamda xarakterlarni hayot hodisalari bilan, hayotdagi jonli odamlar bilan taqqoslay bilishi, shuningdek, bu qiyosiy tahlillardan jamiyat hayoti uchun zarur hamda foydali xulosalar, umumlashmalar chiqara olishi kerak. Ozod Sharafiddinov haqiqiy tanqidning eng asosiy spetsifik vazifasi, eng avvalo, shoir va adib iste'dodini oldindan ko'ra olish va uni kashf etish, qadrlash va ayni vaqtda, adabiy jarayondagi yetakchi tamoyillarni hamda yaratilayotgan yangi asarlarni badiiylilik mezonlari asosida chuqur tahlil etishdan iborat bo'lmog'i lozim deb hisoblardi. Eng muhimi, O.Sharafiddinov bu prinsiplariga butun umri va ijodi davomida qat'iy amal qilib keldi. "Munaqqid Ozod Sharafiddinov nazdida iste'dodli san'atkor, birinchi navbatda, mutafakkir, hayot haqida fikrlovchi, uning ustidan hukm chiqaruvchi faylasufdir, chinakam poeziya esa hamma vaqt his-tuyg'uga aylanib ketadigan fikrdan paydo bo'ladi"[5.1-son]. Aslida, chinakam she'r chuqur, teran fikr-ma'noni go'zal bir shaklda ifodalash san'ati (Erkin Vohidov) ekanligini Navoiylardan boshlab barcha mumtoz shoirlar ta'kidlashgan. Mukammal she'riyat hamisha chuqur mazmun va falsafiy umumlashmalarga boy bo'ladi. Bu umumlashma fikrlar obrazli tafakkur orqali mukammal shakl va mazmun kasb etadi. Zero, obrazli tafakkur badiiy ijodning spetsifik, asl belgi-xususiyatidir. Badiiy so'zdan murod ma'nodir. Navoiy davrida adabiyot va san'atning muqaddas bir ijodiy talabi hamda qonuniyatiga aylangan shunday zalvorli adabiy-estetik aqidalar Ozod Sharafiddinov kabi olimlarning ham ko'pgina asarlari ruhiga singdirilgan va asosiy tahlil mezoniga aylangan, desak yanglishmagan bo'lamiz. Shu munosabat bilan Ozod Sharafiddinovlarga ham talabchan bir ustoz sanalgan hassos so'z san'atkori Abdulla Qahhorning she'r haqidagi mashhur bir ta'rifini keltirish o'rinli bo'ladi, deb o'ylaymiz. "She'r fikr ekstrakti bo'lishi jihatidan-hikmat, ko'ngilga yo'l topishi, undan o'ziga hamohang sado chiqarishi jihatidan-musika.." [6]. Haqiqat nuqrasi darajasiga ko'tarilgan bu fikrning shakllanishi va teranlashuvida ham Navoiy she'riyati va badiiy-estetik qarashlari va an'alarining ijodiy ta'sirini payqash qiyin emas. Muhimi, Abdulla Qahhor kabi Ozod Sharafiddinov ham bu estetik aqidalarga so'z san'atining yuksak me'yor va omillari sifatida hamisha izchil amal qilib kelganligidadir. Shu boisdan ham Ozod Sharafiddinov asarlarida boshqa tanqidchi-mualliflarning maqolalari, taqrizlari

va tadqiqotlarida yo‘l qo‘yilgan jiddiy nuqsonlar, xususan, ustoz adiblar qoralagan “savodsizlik va ur-yiqitchilik”, vulgar sotsiologizm, sxematizm va yuzakilik kabi illatlarni mutlaqo uchratmaymiz. Shunday yutuq va fazilatlar Ozod Sharafiddinovning barcha asarlari hamda ijodiy faoliyatida ham ustuvor ahamiyatga ega ekanligiga guvoh bo‘lamiz. Nihoyat, haqiqiy iste’dodli tanqidchi adabiyotni butun vujudi bilan sevishi, unga fidoyilik bilan sidqidildan xizmat qilishi lozim. Chinakam so‘z san’ati tanqidchi uchun olamdagi eng muqaddas, eng mo‘tabar, eng qutlug‘ narsa bo‘lmog‘i darkor. “Tanqidchilikning murakkabligi shundaki, bu kasbda iste’dodning o‘zi mutlaqo kifoya emas. Iste’dod bo‘lsa, butun umr davomida uni avaylab, parvarishlab, oziqlantirib turish lozim. Tanqidchilik iste’dodining ozuqasi, qanoti bilimdir”[7.174].

Xulosa qilib aytganda Navoiy davrida bo‘lganidek, ijod olamiga Ozod Sharafiddinovdan oldin yoxud keyin kirib kelgan ko‘plab munaqqid va adabiyotshunoslar o‘zlaridagi tabiiy ite’dodi bilan birga yuqorida ta’riflangan fazilatlarini mujassamlashtirganligi hamda ularning ilmiy-ijodiy salohiyat egalari ekanligiga yetuk asarlari va faoliyati misolida amin bo‘lamiz. Ayniqsa, Ozod Sharafiddinovning adabiy-estetik qarashlarimiz va ma’naviy tafakkurimiz rivojidagi xizmati bugungi kundagi faol tanqidchi-adabiyotshunoslarimiz tomonidan ham faxr bilan ta’kidlanadi: “Zukko, iqtidorli munaqqidlar, iste’dodli shoir, adib, dramaturglar singari jamiyatda e’zoz, qadr topdi, nufuzli davlat mukofotlari bilan taqdirlandi. Munaqqidlarning asarlari bir necha avlod qalbiga adabiyotga mehr-muhabbat hissini olib kirib, ularning ong-tafakkuri, hayotga qarashi sog‘lom asosda shakllanishiga qanchalik salmoqli ta’sir ko‘rsatganligini hech bir mezon bilan o‘lchab bo‘lmaydi”[8.128]. So‘z san’ati bilan adabiy tanqid munosabatlari va uzviy bog‘liqligi yoritilgan ilmiy-tarixiy manbalarda ko‘rsatilishicha, badiiy asardagi ma’no hamda go‘zallikni kashf etuvchi haqiqiy ma’nodagi tanqid va talqin, Ozod Sharafiddinov orzu hamda amal qilganidek, eng avvalo, yuksak saviyadagi kitobxonlik va zakiylik nigohi bilan bog‘liqdir. Adabiyot va tanqid doimo bir-biri bilan vobasta bo‘lib, yuksak va umuminsoniy maqsadlarga xizmat qiladi. O‘zbek adabiy tanqidchiligi Oktyabr inqilobi samarasi emas, balki mumtoz adabiyotimizda, Alisher Navoiy davrida yuksak bir cho‘qqiga ko‘tarilgan to‘laqonli ijod sohasi bo‘lgan. So‘z san’ati singari tanqid va adabiyotshunoslik ham uzoq tarixiy tadrijiy yo‘lni bosib o‘tgan va XV asrda “ilmi naqd” – tanqid va adabiyotshunoslikning dastlabki mumtoz namunalaridir. Navoiy adabiy an‘analarini davom ettirgan jadidlar, ularga izdosh adiblar va munaqqidlar ijodi va adabiy-tanqidiy faoliyati ham xalq xizmatiga qaratilgan edi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abdulla Qodiriy. Diyori bakr. –T: Yangi asr avlodi. 2007. –112 b.
2. Ahmedova Sh. Abdulla Qodiriyning adabiy-tanqidiy qarashlariga doir ba’zi mulohazalar. A.Qodiriy ijodining ijtimoiy ma’naviy-ma’rifiy ahamiyati. Respublika ilmiy konferensiya materiallari. –T: 2019. – 45 b.

3. Sharafiddinov O. Ijodni anglash baxti. –T: Sarq, 2004. –274-339 b.
4. Hamroyeva M. (2024). OZOD SHARAFIDDINOV IJODIDA ADABIY-TANQIDIY QARASHLAR. Modern Science and Research, 3(6). Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/34739>
5. Normat Yo‘ldoshev Yoniq qalb munaqqidi. “Sharq yulduzi” jurnali 2012. 1-son.
6. <https://ziyouz.uz/matbuot/sovet-matbuoti/abdulla-qahhor-poeziya-yuksak-san-atdir>
7. Ozod Sharafiddinov. Talant xalq mulki. –T: Adabiyot va san’at, 197.9 –174-179 b.
8. Ulug‘ov Abdulla. Zukko munaqqid. “O‘zbek tili va adabiyoti” jurnali 2-son 2024. – 128 b.